

AHOLINI KAMBAG'ALLIGINI QISQARTIRISH VA IJTIMOY HIMOYANI MOLIYALASHTIRISH

Beknazarov Zafarjon Ergashevich

DSc, professor Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Toshkent, O'zbekiston, email: zafarjonbeknazarov1032@gmail.com
ORCID: 0000-0002-1379-6082

REDUCING POVERTY AND FINANCING SOCIAL PROTECTION

Beknazarov Zafarjon Ergashevich

DSc, professor Tashkent State University of Economics
Tashkent, Uzbekistan, Email: zafarjonbeknazarov1032@gmail.com
ORCID: 0000-0002-1379-6082

Annotatsiya: Maqola aholini kambag'alligi qisqartirish va ijtimoiy himoyani moliyalashtirish masalalariga bag'ishlangan. Asosiy yo'nalishlar sifatida iqtisodiy o'sish, ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirish, kambag'allikdan chiqarish masalalari ko'rib chiqilgan. Moliyalashtirish manbalari davlat byudjeti, xususiy sektor va xalqaro yordamni o'z ichiga oladi. Xalqaro tajribalar va ularni O'zbekiston sharoitlariga moslashtirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Maqolada ijtimoiy himoya dasturlarining samaradorligini oshirish va moliyaviy resurslarni samarali boshqarish usullari ham muhokama qilingan.

Ko'pgina rivojlangan davlatlar ijtimoiy himoya tizimlarini muvaffaqiyatli yo'lga qo'ygan va bu orqali kambag'allik darajasini sezilarli darajada kamaytirishga erishgan. Masalan, Skandinaviya davlatlarida keng qamrovli ijtimoiy himoya tizimlari mavjud bo'lib, bu davlatlar aholisi ijtimoiy himoyalani darajasi bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinlarda turadi. Ularning tajribasi shuni ko'rsatadiki, keng qamrovli va yaxshi moliyalashtirilgan ijtimoiy himoya tizimi iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda va

kambag'allikni kamaytirishda katta rol o'ynaydi. Biroq, kambag'allikni qisqartirish va ijtimoiy himoyani moliyalashtirish bo'yicha xalqaro tajribalar hamma joyda bir xil natija bermasligi mumkin. Har bir mamlakatning o'ziga xos iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sharoitlari bor va shu sababli har bir mamlakat o'ziga xos yondashuvlarni ishlab chiqishi zarur.

Kalit so'zlar: Iqtisodiy ko'rsatkichlar, ijtimoiy dasturlar, aholi daromadlari, kambag'allikni qisqartirish, ijtimoiy himoya, moliyalashtirish, davlat byudjeti, xususiy sektor, xalqaro yordam, iqtisodiy o'sish.

Abstract: The article is devoted to the issues of poverty reduction and financing of social protection. The main directions are considered as economic growth, development of the social protection system, and poverty alleviation. Sources of financing include the state budget, the private sector, and international assistance. International experiences and the possibilities of adapting them to the conditions of Uzbekistan are analyzed. The article also discusses methods for increasing the effectiveness of social protection programs and effective management of financial resources.

Many developed countries have successfully implemented social protection systems and have achieved significant poverty reduction. For example, the Scandinavian countries have comprehensive social protection systems, and their populations are among the world's leading countries in terms of social protection. Their experience shows that a comprehensive and well-funded social protection system plays a major role in ensuring economic stability and reducing poverty. However, international experiences in reducing poverty and financing social protection may not yield the same results everywhere. Each country has its own economic, social and political conditions, and therefore each country needs to develop its own approaches.

Key words: *Economic indicators, social programs, population incomes, poverty reduction, social protection, financing, state budget, private sector, international aid, economic growth.*

Kirish

Kambag'allik bugungi kunda O'zbekiston oldida turgan eng dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Kambag'allik muammosi murakkab va ko'p qirrali bo'lib, tarixiy, siyosiy, tarkibiy va iqtisodiy o'zgaruvchilar ta'sirida shakllanadi. O'zbekiston modernizatsiya va taraqqiyotning ulkan kun tartibiga kirishar ekan, kambag'allikni qisqartirish bo'yicha chora-tadbirlar uning siyosatining ustuvor yo'nalishlarida markaziy o'rinni egalladi. Ushbu chora-tadbirlar, ularni amalga oshirish va samaradorligini sinchkovlik bilan o'rganish mamlakatning kengroq rivojlanish trayektoriyasini tanqidiy tushunish imkonini beradi.

Ushbu maqola ushbu murakkab va ko'p qirrali masalaning turli jihatlarini

ko'rib chiqadi, kambag'allikni qisqartirish va aholini ijtimoiy himoyalashni moliyalashtirishning zarurati, samaradorligi hamda bu boradagi xalqaro tajribalarga e'tibor qaratadi. Kambag'allikni qisqartirishning asosiy tamoyillaridan biri iqtisodiy o'sishni ta'minlash va aholining kam ta'minlangan qatlamlariga resurslarni qayta taqsimlashdan iborat. O'zbekistonda kambag'allik nafaqat daromad yoki resurslarning yetishmasligi, balki ta'lim, sog'liqni saqlash, bandlik imkoniyatlari va ijtimoiy himoyadan foydalanish bilan uzviy bog'liqdir.

Kambag'allikni qisqartirish va aholini ijtimoiy himoyalashning moliyalashtirilishi mamlakatlarning barqaror rivojlanishidagi muhim masalalardan biridir. Kambag'allikni qisqartirish faqat iqtisodiy o'sish bilan emas, balki aholini ijtimoiy himoyalash va resurslarga teng kirish imkoniyatlarini ta'minlash orqali amalga oshiriladi.

Iqtisodiy o'sish kambag'allikni kamaytirishda muhim rol o'ynaydi, chunki bu aholi uchun yangi ish o'rinlari yaratadi va daromadlarni oshiradi. Biroq, iqtisodiy o'sishning o'zi yetarli emas. Aholining ijtimoiy himoyalash darajasini oshirish uchun davlat tomonidan ko'rsatiladigan ijtimoiy xizmatlar va yordamlarning kengaytirilishi ham talab qilinadi. Ijtimoiy himoya tizimi kambag'allikni qisqartirishda muhim ahamiyatga ega, chunki u aholining eng zaif qatlamlarini himoya qiladi va ularga asosiy ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lgan resurslarni taqdim etadi. Bunday tizim nafaqat iqtisodiy qiyinchiliklar vaqtida, balki oddiy kunlarda ham aholini qo'llab-quvvatlash uchun xizmat qiladi. Ijtimoiy himoya choralari orasida pensiyalar, bolalar nafaqalari, ishsizlik nafaqalari va sog'liqni saqlash xizmatlariga kirish imkoniyatlari mavjud. Kambag'allikni

qisqartirish va aholini ijtimoiy himoyalashni moliyalashtirishning samaradorligi, avvalo, bu boradagi siyosatning qanchalik puxta o'ylanganligi va barqarorligiga bog'liq. Moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash orqali davlat ijtimoiy himoya tizimining samaradorligini oshirishi mumkin.

Material va metod.

"Kambag'allik va ijtimoiy himoya" tushunchalarining ifodalanishi u yoki bu muallifning tadqiqot sohasiga bog'liq. Shularni inobatga olib ushbu tushunchani yoritib bergan xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan berilgan ta'riflarning eng asosiylari deb bilganlar 1-jadvalga muvofiq keltirib o'tiladi.

1-jadval

Kambag'allik va ijtimoiy himoya tushunchalarining tariflanishi

Mualliflar	Tariflar
Abhijit V. Banerjee va Esther Duflo (2022-y.)	"Poor Economics" (Kambag'allar iqtisodiyoti) asarida ilgari suriladi. Ular mikro siyosatlar — ya'ni kichik va aniq mo'ljallangan choralar orqali kambag'allikni kamaytirish imkoniyatlarini o'rganadilar. Ularning yondashuvi odamlarga har kuni to'qnash keladigan real muammolar — ta'lim, sog'liqni saqlash, kreditga kirish imkoniyati kabi masalalarga kichik, lekin samarali aralashuvlar orqali yordam berishga asoslanadi.
Tovnsend (2023-y.)	Nisbiy kambag'allik tushunchasini ilgari surdi va jamiyatda faol ishtirok etish uchun o'zini o'zi ta'minlay olish qobiliyatini kambag'allik mezonini sifatida baholash zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, insonlar faqat minimal biologik ehtiyojlarini emas, balki jamiyatdagi ijtimoiy normalar va faol hayotda ishtirok etish imkoniyatlarini ham qondira olishi kerak
Dreze va Sachs (2023-y.)	Kambag'allik masalasini yoritishga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlar juda keng bo'lib, bu mavzuni iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy jihatlarida yoritishga harakat qiladi. Ushbu adabiyotlar orasida nafaqat daromadlar darajasi, balki sog'liqni saqlash, ta'lim, ishga joylashish, ijtimoiy himoya tizimlari va inson huquqlari kabi masalalar ham muhim o'rin tutadi. "The End of Poverty" (Kambag'allikning oxiri) asarida ayrim mintaqalarda kambag'allikni kamaytirishga qaratilgan sa'y-harakatlar geografik joylashuv, zaif institutlar va bozorlarning mavjudligi kabi asosiy omillarga yo'naltirilishi lozimligini ta'kidlaydi. Ularning fikricha, bu hududlardagi kambag'allik sabablari tizimli va chuqur ildiz otgan bo'lib, ularni hal qilish makro darajadagi muammolarni bartaraf etishni talab qiladi.
G. Sultonova (2024-y.)	O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish siyosatining real ta'siri o'rganilgan. Muallif o'z tadqiqotida ijtimoiy himoya tizimi va iqtisodiy barqarorlikni oshirish bo'yicha qabul qilingan dasturlarni tahlil qilib, ularning kambag'allikni qisqartirishga qanchalik hissa qo'shishini baholaydi. Tadqiqot natijalari kambag'allikni kamaytirish siyosatining kompleks yondashuv orqali amalga oshirilishi zarurligini ko'rsatadi.

R. Maxmudov (2024-y.)	Kambag'allikni qisqartirishning ijtimoiy-falsafiy masalalari keng yoritilgan. Tadqiqotda kambag'allik nafaqat iqtisodiy muammo, balki jamiyatning madaniy va axloqiy rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi omil sifatida qaraladi. Muallif ijtimoiy mas'uliyat, fuqarolik jamiyatining roli va davlat siyosatining ahamiyatini chuqur tahlil qiladi.
-----------------------	---

Mazkur sohadagi xorijiy va mahalliy olimlarning kambag'allik va ijtimoiy himoya tushunchalariga bergan ta'riflarini o'rganish va tahlil qilish asosida biz aholini kambag'alligini qisqartirish va ijtimoiy himoyani moliyalashtirish funksiyalari hamda faoliyati bilan bog'liq quyidagicha ta'rifini keltirib o'tamiz: Bevosita kambag'allik va qashshoqlik tushunchalariga keladigan bo'lsak, shuni alohida ta'kidlash joizki, hozirda jahon bo'ylab kambag'allik yoki qashshoqlik tushunchalarining umumqabul qilingan hamda yagona kelishilgan ta'rif ishlab chiqilmagan. Har bir mamlakat o'zi uchun belgilangan kambag'allik mezonidan kelib chiqib tavsiflaydi. BMT ta'rifiga ko'ra, qashshoqlik – insonning hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan daromad va resurslar yetishmasligi, bundan tashqari, ochlik va to'yib ovqatlanmaslik, sog'liqni saqlash, ta'lim yoki boshqa asosiy xizmatlardan foydalanishda cheklovlarning mavjudligi, turar joyning yo'qligi, xavfli tabiiy va texnogen muhitda hamda ijtimoiy tengsizlik sharoitida yashashiga nisbatan aytiladi (BMTning "Ijtimoiy himoya borasida yuqori darajadagi Butunjahon sammiti"dan).

kambag'allik esa insonning hayoti davomida tanlov va imkoniyatlarga ega bo'lmasligi, jamiyatda to'laqonli ishtirok etish uchun to'siqlarning mavjudligi, bundan tashqari, oilasini boqishi va kiyintirishi, ta'lim olishi yoki kasalxonada davolanishi, biror sohada faoliyat yuritishi yoki daromad

olishga imkon beradigan mehnat bilan ta'minlash imkoniyatlari yetishmasligi hamda kredit olish imkoniyatining cheklanganligida namoyon bo'ladi. Shuningdek, kambag'allik — bu insonlar, uy xo'jaliklari va jamoalarning ijtimoiy jihatdan chegaralanganligi, xavf-xatarlar oldida chorasizligi hamda nochorligi sanaladi (BMT Yevropa Iqtisodiy komissiyasining "Kambag'allikni o'lchash bo'yicha qo'llanma"sidan, 2017-yil Nyu-York, Jyeneva).

Kambag'allikni aniqlash uslubiyoti haqida so'z borganda, avvalo, mazkur uslubiyot nima uchun kerak, degan savolga javob berish lozim bo'ladi. Kambag'allikni aniqlash uslubiyoti davlat tomonidan umumiy aholi tarkibidagi kambag'al aholi qatlami ulushini aniqlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun zarur hisoblanadi. Bundan tashqari, aholi ijtimoiy himoya tizimidagi asosiy ijtimoiy standartlarni belgilashda kambag'allik chegarasi zamin bo'lib xizmat qiladi.

Jahon amaliyotida kambag'allik chegarasini aniqlashning asosiy 4 ta: mutlaq, nisbiy, moddiy deprivatsiya va ko'p o'lchamli usullari mavjud. Mazkur usullar mamlakat ijtimoiy siyosatining ustuvorligi, iqtisodiyotning rivojlanganlik darajasi hamda ichki imkoniyatlardan kelib chiqib belgilanadi. Qator mamlakatlar milliy kambag'allik chegarasi sifatida mutlaq yoki nisbiy usuldan foydalanadi.

Mutlaq kambag'allik chegarasi kishi hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan tovar va xizmatlar qiymati orqali aniqlanadi. Jahon tajribasida mutlaq kambag'allik chegarasining o'rtacha yillik miqdorini aniqlash uchun aholi jon boshiga YaIMning 25 foizi qabul qilingan bo'lib, aksar rivojlangan mamlakatlarda (AQSh, Kanada, Niderlandiya) mazkur ko'rsatkich nisbatan yuqoridir.

Aholini ijtimoiy himoya qilishning quyidagi nodavlat shakllari mavjud: shaxsiy xayriya, korporativ ijtimoiy yordam; institutsional xayriya; ixtiyoriy yordam; xalqaro (gumanitar yordam). Ushbu jarayon doim ham ochiq namoyon bo'lmaydi, u haqida faqatgina yordam ko'rsatuvchi sub'yektning o'zi yoki yordam ko'rsatiluvchi ob'yektgina bilishi mumkin, xolos, shuning uchun bu holatni aniq hisob-kitob qilish imkoniyati mavjud emas. Ushbu yordamni ko'rsatish ham turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi, savob ishlar qilish va shunga o'xshash bo'lgan boshqa istaklar sabab bo'lishi mumkin. Shaxsiy xayriyaning iqtisodiy asosi sifatida individning shaxsiy resurslari namoyon bo'ladi.

Korporativ ijtimoiy yordam. Mazkur yordam turining asosiy sub'yekti sifatida o'zining sobiq hamda faoliyat olib boruvchi xodimlariga ijtimoiy yordam ko'rsatuvchi, katta daromadga ega tijorat korxonalari, korporatsiyalar namoyon bo'ladi. Mazkur yordam turi korxonada o'z faoliyatini olib boruvchi xodimlarga beriluvchi "ijtimoiy paketlar" sifatida tushunilmasligi lozim, uning ob'yekti murakkab hayotiy vaziyatga tushib qolgan xodimlar, shuningdek, korxona nuroniylaridir. «Yordam ko'rsatish jarayonlarini tartibga solish maqsadida korxona tomonidan (tashkiliy-huquqiy faoliyat shakli sifatidagi) maxsus fondlar

tashkil etilib, ijtimoiy reja va dasturlar ishlab chiqiladi.

Institutsional xayriya. Bu maxsus xayriya institutlari tomonidan tashkil etilgan yordamdir. Mazkur yordam sub'yektlari sifatida o'z oldiga xayriya yordamlarini ko'rsatishni maqsad qilib qo'ygan notijorat, jamoat tashkilotlari»: xayriya tashkilotlari, shuningdek, ijtimoiy yordam ko'rsatuvchi jamoat tashkilotlari namoyon bo'ladi. Hukumat tomonidan mazkur tashkilotlarning xayriya harakatlarini tashkiliy-huquqiy shakli qonunchilik bilan mustahkam belgilab qo'yilgan: ijtimoiy xayriya tashkilotlari, ijtimoiy xayriya fondlari, xayriya muassasalari va h.k.lar, xayriya maqsadlari va vazifalarini qat'iy belgilab olishgan. Xayriya tashkilotlari oldiga qo'yilgan maqsadlarni amalga oshirish uchun turli xayriya mablag'larini jalb qilish, investitsion faoliyat, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish imkoniyatiga ega bo'lgan xo'jalik yuritish sub'yektlaridir.


Natijalar.

O'zbekiston ham so'nggi yillarda kambag'allikni qisqartirish va aholini ijtimoiy himoyalash sohasida jiddiy qadamlar qo'ymoqda. Bu borada qabul qilingan davlat dasturlari va islohotlar natijasida aholining ijtimoiy himoyalash darajasi oshmoqda. Moliyaviy resurslarni samarali boshqarish, ijtimoiy yordamlarning manzillik tamoyiliga amal qilish va xalqaro tajribalarni inobatga olish O'zbekistonning kambag'allikni qisqartirish va aholini ijtimoiy himoyalash bo'yicha siyosatining samaradorligini oshiradi.

Kambag'allikni qisqartirish va aholini ijtimoiy himoyalashning moliyalashtirish mexanizmlari samaradorligini baholashga asoslangan. Sifat va miqdoriy tahlil natijalariga ko'ra, O'zbekistonda

kambag'allikni qisqartirishda davlat tomonidan amalga oshirilayotgan iqtisodiy va ijtimoiy siyosatlar muhim natijalar berayotgani kuzatildi. Statistik

tahlillar shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonning ijtimoiy himoya sohasiga ajratilgan mablag'lari yildan-yilga ortib bormoqda.



1-rasm. 2020-2025-yillarda Ijtimoiy himoya dasturlariga ajratilgan mablag'lar (mlrd so'm)¹

¹ Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Yuqoridagi rasm ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish hajmi 2020-yildan 2025-yilgacha 120% ga oshgan. Bu o'sish davlatning kambag'allikni qisqartirish va ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirishga bo'lgan e'tiborini aks ettiradi. So'rovnoma o'tkazilgan respondentlarning 75% ijtimoiy yordam dasturlaridan xabardor ekanligini va ulardan foydalanayotganini bildirgan. Shu bilan birga, respondentlarning 60% ijtimoiy yordam ularning turmush darajasini sezilarli darajada yaxshilaganini qayd etgan. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda kambag'allik darajasi so'nggi yillarda sezilarli darajada kamaygan. 2020-yilda kambag'allik darajasi 11 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 8foizgacha pasaygan. O'tgan yili 719 ming kishi kambag'allikdan chiqarilgan. Kambag'allikning eng past ko'rsatkichi Navoiy viloyatida (5,7 foiz), eng yuqori ko'rsatkichi Xorazm viloyatida (11,9 foiz) qayd etilgan. 2025-yilning 1-iyul holatiga, ko'ra 6,8 foizni tashkil etmoqda.

Kambag'allikni qisqartirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, bu jarayonni amalga oshirish uchun bir nechta asosiy tamoyillarga amal qilish zarur. Birinchidan, iqtisodiy o'sishni ta'minlash orqali yangi ish o'rinlari yaratish va aholining daromadlarini oshirish talab etiladi. Iqtisodiy o'sish kambag'allikni kamaytirishda asosiy omillardan biri hisoblanadi, chunki bu yangi imkoniyatlar yaratadi va aholi uchun resurslar yetkazib beradi. Ikkinchidan, aholini ijtimoiy himoyalash tizimini rivojlantirish va kengaytirish zarur. Bu tizim eng zaif qatlamlarni qo'llab-quvvatlash, ularning asosiy ehtiyojlarini qondirish va hayot sifatini oshirishga qaratilgan. Ijtimoiy himoya choralari orasida pensiyalar, bolalar nafaqalari, ishsizlik nafaqalari, sog'liqni

saqlash xizmatlari va boshqa turli xil yordamlar mavjud. Bu chora-tadbirlar aholining iqtisodiy qiyinchiliklarga bardosh berishiga yordam beradi va ularning farovonligini oshiradi. Uchinchidan, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlarini yaxshilash orqali aholining bilim va malakasini oshirish muhimdir. Ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlariga keng kirish imkoniyatlari aholining hayot sifatini yaxshilashda muhim rol o'ynaydi. Ta'lim tizimining samaradorligi oshirilishi natijasida yoshlar malakali kasb-hunar egasi bo'lib, mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishadi. Sog'liqni saqlash xizmatlarining sifatini oshirish esa aholi salomatligini yaxshilash va mehnatga layoqatlilikni oshirishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy himoyani moliyalashtirishning zarurati. Aholini ijtimoiy himoyalashning samarali tizimi moliyalashtirish manbalarining barqarorligiga bog'liq. Ijtimoiy himoya tizimi davlat byudjeti hisobidan moliyalashtirilishi yoki xususiy sektor va xalqaro tashkilotlar yordamida amalga oshirilishi mumkin. Davlat byudjeti orqali moliyalashtirish aholining ijtimoiy himoalanish darajasini oshirishda eng ishonchli manba hisoblanadi. Shu sababli, davlat byudjeti mablag'larini samarali taqsimlash va ijtimoiy himoya choralari uchun yetarli miqdorda mablag' ajratish zarur. Xususiy sektorning ishtiroki ham ijtimoiy himoyani moliyalashtirishda muhim ahamiyatga ega. Korxonalar va xususiy tashkilotlar ijtimoiy loyihalar va dasturlar orqali aholining ijtimoiy himoalanishiga hissa qo'shishlari mumkin. Bu esa davlatning moliyaviy yukini kamaytiradi va ijtimoiy himoya tizimining samaradorligini oshiradi. Xalqaro tashkilotlar va donor davlatlar tomonidan ko'rsatiladigan moliyaviy yordam ham ijtimoiy himoya

dasturlarini amalga oshirishda qo'shimcha manba sifatida xizmat qiladi.

Yurtimizning barcha hududlarida ijobiy o'zgarishlar qayd etildi. Ayniqsa, Buxoro va Samarqand viloyatlarida sezilarli

o'sish qayd etildi, bu yerda kambag'allik o'rtacha 3,1 foiz punktga qisqarib, mos ravishda 8,7 va 7,5 foizni tashkil etdi. Namangan viloyati va Qoraqalpog'istonda kambag'allik darajasi 2,8 foiz bandga — 7,6 foiz va 10,8 foizgacha pasaydi.



2-rasm. Hududlar bo'yicha kambag'allikni qisqartirish darajasi (foizda)².

² O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Kambag'allik ko'rsatkichining eng kam pasayishi Qashqadaryo viloyatida — 11,5 foizdan 9,6 foizgacha (1,9 f.p.), Navoiy viloyatida — 7,6 foizdan 5,7 foizgacha (1,9), Farg'onada — 10,1 foizdan 8,6 foizgacha (1,5), Surxondaryo viloyatida — 10,6 foizdan 9,3 foizgacha (1,3) va Toshkent shahrida — 7,9 foizdan 7,3 foizgacha (0,6) qayd etildi.

Ijtimoiy himoya dasturlarining samaradorligini oshirish uchun bir qator choratadbirlarni amalga oshirish zarur. Birinchidan, ijtimoiy yordamlarning manzillik tamoyiliga amal qilish talab etiladi. Bu yordamlar eng muhtoj kishilarga yetkazilishi kerak. Bu orqali ijtimoiy himoya choralari samaradorligini oshirish va resurslarni optimal taqsimlash mumkin. Ikkinchidan, ijtimoiy himoya tizimining samaradorligini monitoring qilish va baholash tizimini joriy etish muhimdir. Bu

orqali dasturlar natijadorligini tahlil qilish, kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish imkoniyatlari yaratiladi. Monitoring va baholash tizimi orqali ijtimoiy himoya dasturlarining natijadorligi oshiriladi va resurslar samarali ishlatiladi. Uchinchidan, ijtimoiy himoya dasturlarini amalga oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish zarur. Zamonaviy texnologiyalar yordamida ijtimoiy yordamlarni tarqatish va monitoring qilish jarayonlari soddalashtiriladi va shaffofligi ta'minlanadi.

Kambag'allikni qisqartirish ish bilan ta'minlash, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va yerdan samarali foydalanish orqali amalga oshirildi. Ushbu chora-tadbirlar natijasida aholining real daromadlari o'tgan yilda 10,7 foizga oshib, aholi jon boshiga oyiga o'rtacha 2,1 mln so'mni tashkil etdi (yil boshida — 1,7 mln so'm).



3-rasm. Aholining daromadlar tarkibi³.

³ O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Quyidagilar daromadlarning asosiy manbalari bo'lib qolmoqda:

- ish haqi — 42,6% (2023-yilda — 41,9%);
- tadbirkorlikdan olingan daromadlar — 22,9% (21,4%);
- pensiyalar, ijtimoiy yordam va subsidiyalar — 18,2% (18,9%);
- qishloq xo'jaligi va tomorqalardan olingan daromadlar — 10,7% (9,8%);
- xorijdan pul o'tkazmalari — 2% (3,1%);
- boshqa daromadlar — 3,6% (4,9%).

Tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar 1,5 foiz punktga, qishloq xo'jaligidan olingan daromadlar esa 0,9 foiz punktga oshdi. Daromadlarning eng yuqori o'sishi Farg'ona (+19,1%) va Buxoro (+11,4%) viloyatlarida, shuningdek, Toshkent shahrida (+17%) qayd etildi. Poytaxtda aholining o'rtacha daromadi 3,6 mln so'mni, Navoiy va Qashqadaryo viloyatlarida esa 2,2 mln so'mni tashkil etgan. 2024-yilda ish haqidan olingan daromadlar 12,9 foizga oshdi, buning uchun 5,1 million kishi ish bilan ta'minlandi. Rasmiy ish bilan band aholining ulushi 30 foizga oshdi.

Munozara.

Kambag'allikni qisqartirish va ijtimoiy himoyani moliyalashtirish bo'yicha xalqaro tajribalar turli yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Skandinaviya davlatlari, masalan, keng qamrovli ijtimoiy himoya tizimlarini muvaffaqiyatli yo'lga qo'ygan va kambag'allik darajasini sezilarli darajada kamaytirishga erishgan. Ularning tajribasi shuni ko'rsatadiki, keng qamrovli va yaxshi moliyalashtirilgan ijtimoiy himoya tizimi iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda va kambag'allikni kamaytirishda katta rol o'ynaydi. Janubiy Koreya va Singapur kabi davlatlar esa iqtisodiy o'sishni ta'minlash

orqali kambag'allikni qisqartirishga erishgan. Ular malakali ishchi kuchini tayyorlash, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlarini rivojlantirish orqali iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlagan. Ularning tajribasi ko'rsatadiki, iqtisodiy o'sish va ijtimoiy himoya choralari birgalikda amalga oshirilganda samarali natijalarga erishish mumkin. O'zbekiston ham xalqaro tajribalarni o'rganib, ularni mamlakat sharoitlariga moslashtirgan holda qo'llashga intilmoqda. So'nggi yillarda qabul qilingan davlat dasturlari va islohotlar natijasida aholining ijtimoiy himoyalanish darajasi oshmoqda. Xalqaro tajribalarni inobatga olgan holda, O'zbekiston o'z ijtimoiy himoya tizimini yanada rivojlantirish va moliyalashtirishning yangi usullarini izlashga davom etmoqda.

O'zbekistonda kambag'allik darajasini baholash 2020-yildan buyon doimiy ravishda o'tkazib kelinmoqda va aholining turmush darajasi, sharoiti va sifati to'g'risidagi muhim ma'lumotlar manbai bo'lib, mamlakatda monetar kambag'allik darajasini baholash uchun yagona axborot manbai hisoblanadi.

So'rovnomada ishtirok etgan uy xo'jaliklari xarajatlar miqdoriga ko'ra 10 ta guruhga bo'linadi va ushbu oilalardan eng kam xarajatlar (daromadlar)ga ega bo'lgan uy xo'jaliklariga 30 foiz o'rin beriladi. Kambag'allik chegarasini aniqlash uchun ishlatiladigan minimal iste'mol xarajatlari (MIS) oziq-ovqat mahsulotlarining kunlik zaruriy iste'molini (2200 kkal), oyiga nooziq-ovqat tovarlari va xizmatlarni hisobga oladi.

Qonunchilikka muvofiq, Statistika agentligi har yilning 20-yanvarigacha MISni e'lon qilishi lozim. O'tgan yili MIS ikki marta oshirildi — yil boshida oldingi yildagi 8,7 foizlik inflyatsiya fonida 9,3 foizga, keyin esa 1-maydan gaz va elektr energiyasi

tariflarining keskin ko'tarilishi munosabati bilan yana 4,3 foizga oshdi. Bu ko'rsatkich oyiga 648 ming so'mni tashkil etadi. Joriy yilda yangi MIS ko'rsatkichi hali e'lon qilinmagan. 2022-yildan boshlab "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimi orqali oilani kam ta'minlangan deb e'tirof etishda qo'llaniladigan bir oylik o'rtacha daromad mezoni minimal iste'mol xarajatlariga tenglashtirildi. Ba'zi nafaqalar va boshqa ijtimoiy me'yorlar minimal iste'mol xarajatlaridan kam bo'lmagan miqdorda to'lanishi kerak.

Istiqbolda O'zbekistonda ko'p o'lchovli kambag'allik indeksini joriy etishni rejalashtirmoqda, bu aholining turmush sharoitlarini yanada aniqroq baholash va kambag'allikka qarshi kurashish bo'yicha manzilli chora-tadbirlarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Moliyalashtirish manbalari, iqtisodiy resurslarni taqsimlash usullari va ijtimoiy himoya tizimining tuzilishi mamlakatning o'ziga xos sharoitlariga moslashtirilishi kerak. Shu bilan birga, mamlakatning ijtimoiy himoya tizimini yanada rivojlantirish va moliyalashtirishning yangi usullarini izlash zarur. Bu, o'z navbatida, aholining farovonligini oshirish va

mamlakatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Kambag'allikni qisqartirish va aholini ijtimoiy himoya qilish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, uning muvaffaqiyati aholining hayot sifatini yaxshilash va ijtimoiy adolatni ta'minlashga bog'liqdir.

Xulosa.

Aholini kambag'alligini qisqartirish va ijtimoiy himoyani moliyalashtirish orqali fuqarolarning turmush farovonligini oshirish, ijtimoiy nazorat funksiyasi hamda faoliyati bilan bog'liq bo'lgan yangicha ta'rifi ishlab chiqish, kambag'allikni qisqartirish va ijtimoiy himoya sohasida nazariy-xuquqiy jihatdan ahamiyatini oshirishni takomillashtirish kerakligi asoslantirildi.

O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish va ijtimoiy himoyani tizimini manzilli yetib borishini hududlar kesimida o'rganishlar olib borilishi va bu orqali ma'lumotlarni aniq tahlil qilish hamda xulosalar chiqarish imkonini berishi keltirib o'tilgan. Kambag'allikni qisqartirish ijtimoiy himoya qilish tizimini to'liqligicha Ijtimoiy himoya milliy agentligiga o'tkazilishi va ularni aniqlash mezonlarini qaytadan shakllantirish taklif etiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sultonova, G. (2024). O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish siyosatining ta'sirini tahlil qilish. Nordic_Press, 2(0002).
2. Maxmudov, R. (2024). O'ZBEKISTONDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING IJTIMOY-FALSAFIY MASALALARI. Byulleten pedagogov novogo Uzbekistana, 2(1), 100-102.
3. Asqarova, A. M. (2023). KAMBAG'ALLIK-IJTIMOY-IQTISODIY MUAMMO. Educational Research in Universal Sciences, 2(4), 390-393.
4. Grameen Bank (2022). Annual Report. <https://www.grameen.com>
5. Banerjee, A. V., Duflo, E. (2011). Poor Economics: A Radical Rethinking of the Way to Fight Global Poverty. PublicAffairs.



6. Sholdarov D.A. / ANALYSIS OF THE PRACTICE OF IDENTIFYING LOW-INCOME FAMILIES AND PROVIDING TARGETED ASSISTANCE TO THEM. World Economics & Finance Bulletin (WEFB). ISSN: 2749-3628, Vol. 34, May, 2024. 83-90 p.

7. Sholdarov D.A. Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini moliyaviy qo'llab quvvatlash mexanizmini xorij tajribalari. // Moliya ilmiy jurnali. 2-son 2024-yil. 134-140 b.